# Xalq so'zi

O'zbekiston — kelajagi buyuk davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO`LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan ● WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ● 2024 yil 18-sentabr, № 192 (8815) Chorshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.


# MARKAZIY OSIYO VA GERMANIYA: HAMKORLIK ISTIQBOLLARIGA YO'NALTIRILGAN MUHIM TAKLIF VA TASHABBUSLAR

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 17-sentabr kuni Ostona shahrida ikkinchi "Markaziy Osiyo – Germaniya" sammitida ishtirok etdi.**



Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev raisligida o'tgan tadbirda Germaniya Federal Kansleri Olaf Shols, Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon va Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov ham qatnashdi.

Markaziy Osiyo mamlakatlari va Germaniya o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlikni yanada chuqurlashtirish masalalari ko'rib chiqildi. Investitsiya va texnologiyalar, o'ta muhim xomashyo resurslari, "yashil" energetika, transport va logistika aloqalari, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish sohalarida sheriklikni rivojlantirish, shuningdek, ta'lim va madaniy dasturlarni amalga oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

O'zbekiston Prezidenti o'z nutqida Germaniya Markaziy Osiyo mamlakatlarida olib borilayotgan demokratik o'zgarishlar va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni, mintaqadagi hamkorlik va integratsiyani qat'iy hamda o'zgarmas qo'llab-quvvatlayotganini yuqori baholadi.

– Bizning Berlindagi ilk uchrashuvimiz va bugungi sammit aniq, amaliy natijalarga erishishga qaratilgan ochiq va konstruktiv muloqotimizni davom ettirishga bo'lgan umumiy intilishimizni yana bir bor tasdiqlamoqda, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Davlatimiz rahbari Germaniya bilan munosabatlar chuqur tarixiy ildizlarga ega ekani, Markaziy Osiyoda barqaror rivojlanish maqsadlarini ta'minlashda Federativ Respublikaning muhim o'rnini alohida ta'kidladi. So'nggi yillarda mintaqada yuz bergan chuqur o'zgarishlar o'zaro manfaatli hamkorlikni jadal rivojlantirishga xizmat qilayotgani qayd etildi.

O'zbekiston Prezidenti Markaziy Osiyoning Germaniya bilan har tomonlama hamkorligini yanada rivojlantirish maqsadida bir qator yangi tashabbus va takliflarni ilgari surdi.

Avvalo, O'zbekiston rahbari Markaziy Osiyo va Germaniya o'rtasida strategik mintaqaviy sheriklik o'rnatilganini yuqori baholab, ustuvor yo'nalishlarda dasturiy tadbirlarni qamrab olgan uzoq muddatli Hamkorlikni rivojlantirish konsepsiyasini qabul qilishni taklif etdi.

Ushbu hujjatni ishlab chiqish uchun "Markaziy Osiyo – Germaniya" tahliliy markazlari forumini ta'sis etish va uning birinchi uchrashuvini kelgusi yili Xivada o'tkazish zarurligi ta'kidlandi.

Sammitlar kun tartibini tayyorlashda mamlakatlarimiz tashqi siyosat idoralari rahbarlarining yillik uchrashuvlari muhim rol o'ynashi qayd etildi.

Germaniyaning yetakchi kompaniyalari bilan investitsiyaviy va texnologik sheriklikni kuchaytirish ustuvor vazifa hisoblanadi.

Shu munosabat bilan Markaziy Osiyo mamlakatlari va Germaniya o'rtasidagi investitsiyaviy va texnologik hamkorlikni kengaytirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ni ishlab chiqish, mintaqada qo'shma loyihalarni amalga oshirishga Germaniyaning yetakchi kompaniya va banklarini faol jalb etish, "Markaziy Osiyo va Germaniya" investor va tadbirkorlari kengashini tuzish, shuningdek, investitsiyalarni rag'batlantirish va himoya qilish bo'yicha ko'p tomonlama hukumatlararo bitimni qabul qilish imkoniyatlarini o'rganish taklif etildi.

➡ 2

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING "MARKAZIY OSIYO – GERMANIYA" IKKINCHI SAMMITIDAGI NUTQI

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

Sizlarni qutlashdan chin dildan mamnunman.

Samimiy qabul va uchrashuvimizni yuksak darajada tashkil etgani uchun Qozog'iston Respublikasi Prezidenti hurmatli Qosim-Jomart Kemelevich Toqayevga bildirilgan minnatdorlik so'zlariga qo'shilaman.

Germaniya Federal Kansleri hurmatli Olaf Shols Janobi Oliylariga mintaqamiz mamlakatlari bilan ko'p qirrali sheriklikni kengaytirish tarafdori ekanligi uchun tashakkur izhor qilaman.

Bizning Berlindagi ilk uchrashuvimiz va bugungi sammit ochiq va konstruktiv muloqotimizni davom ettirish, aniq, amaliy natijalarga erishishga bo'lgan umumiy intilishimizni yana bir bor tasdiqlamoqda.

Biz ilgari surilayotgan tashabbuslar ekspertizasi va ularni amalga oshirish mexanizmlarini shakllantiradigan mana shunday formatdagi uchrashuvlarni muntazam o'tkazib borishdan manfaatdormiz.

Hurmatli Federal Kansler Janobi Oliylari!

Biz Germaniyaning mamlakatlarimizda olib borilayotgan demokratik o'zgarishlar va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni, Markaziy Osiyodagi hamkorlik va integratsiyani qat'iy hamda o'zgarmas qo'llab-quvvatlashini yuksak qadrlaymiz.

Shuni alohida ta'kidlaymanki, bizning munosabatlarimiz chuqur tarixiy ildizlarga ega. XVIII asrdayoq Yevropadagi Ma'rifatparvarlik davrining buyuk bastakori Gendel o'z ijodining shoh asarlaridan biri bo'lgan "Amir Temur" operasini yaratgan. Buyuk shoir va faylasuf Gyote o'zining bir qator mashhur asarlarini sivilizatsiya markazlari bo'lgan qadimiy shaharlarimizga bag'ishlagan.

Yana bir tarixiy misolni keltiraman. XX asr boshida Markaziy Osiyoning bir guruh iste'dodli, taraqqiyparvar yoshlari Germaniyaning yetakchi universitetlarida tahsil olishgan va keyinchalik ma'rifatparvarlik g'oyalarini ilgari surish, mintaqamiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga katta hissa qo'shganlar.

Ta'kidlamoqchimanki, biz bugun Germaniyani barqaror rivojlanish bo'yicha milliy maqsadlarga erishishda muhim hamkorlarimizdan biri sifatida ko'ramiz.

So'nggi yillarda Markaziy Osiyoda ro'y berayotgan chuqur, fundamental o'zgarishlar haqida qisqacha to'xtalib o'tmoqchiman.

Biz ochiq va samarali muloqotni yo'lga qo'ydik, chegara, suv, energetika, savdo, tranzit bilan bog'liq ko'plab muammolarni mustaqil hal qilyapmiz.

Yaqinda bu yerda, Ostona shahrida mintaqa davlatlari rahbarlarining oltinchi uchrashuvini o'tkazdik.

Mintaqaning xalqaro subyekt sifatidagi o'rni mustahkamlanmoqda, jahonning yetakchi mamlakatlari bilan "Markaziy Osiyo plyus" formatidagi hamkorligi kengaymoqda.

Mintaqa ichidagi savdo aylanmasi, investitsiyalar, yuk tashuvlari, fuqarolarimizning sayyohlik tashriflari ko'rsatkichlari bir necha barobar o'sdi.

Biz "yashil" energetika va transport kommunikatsiyalarini rivojlantirish sohalaridagi yirik mintaqaviy loyihalarni amalga oshirishni muhokama qilyapmiz.

Tajriba va texnologiyalarni almashyapmiz, sanoat va qishloq xo'jaligi sohalarida zamonaviy korxonalar tashkil etyapmiz, kooperatsiya loyihalarini rag'batlantirish bo'yicha moliyaviy vositalarni joriy qilyapmiz.

Eng muhimi, mintaqamizning ertangi kuni, uning xavfsizligi va barqaror taraqqiyoti faqat bizning siyosiy irodamiz va sa'y-harakatlarimizga bog'liq ekanini aniq tasavvur qilmoqdamiz.

Biz yevropalik sheriklarimiz, eng avvalo, Yevropa Ittifoqining mamlakatlarimiz bilan hamkorlik bo'yicha strategiya va ko'p tomonlama dasturlarining asosiy tashabbuskori bo'lgan Germaniyaning qiziqishlarini samimiy olqishlaymiz.

Kelgusi yili "Markaziy Osiyo – Yevropa Ittifoqi" formatidagi navbatdagi sammitni O'zbekistonda, mintaqa kelajagiga investitsiyalar kiritishni uchrashuvimiz kun tartibidagi asosiy mavzu sifatida belgilagan holda o'tkazishga tayyorgarlik ko'ryapmiz.

Hurmatli hamkasblar!

Mojarolar va urushlar, umuman, global miqyosdagi beqarorlik va vaziyat qaysi tomonga o'zgarishi noaniq bo'lib qolayotgani, sanksiyalar siyosati, proteksionizmning kuchayishi va boshqa ko'plab omillar mamlakatlarimizga haddan tashqari salbiy ta'sir ko'rsatmoqda, milliy islohotlarimizni amalga oshirishda jiddiy sinovga aylanmoqda.

Kechagina hurmatli Olaf Shols Janobi Oliylari bilan Samarqanddagi muzokaralarimiz chog'ida men bugungi uchrashuvimizdan kutayotgan yuksak natijalar haqida fikr almashdim.

Shu munosabat bilan Markaziy Osiyoda Germaniya bilan hamkorlikni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari bo'yicha qarashlarimizni bayon etishni istar edim.

**Birinchi.** Markaziy Osiyo va Germaniya o'rtasidagi mintaqa barqarorligi, barqaror rivojlanishi va farovonligini ta'minlash bo'yicha umumiy manfaatlarimizga javob beradigan strategik mintaqaviy hamkorlikni yuksak qadrlaymiz.

Ustuvor sohalarda dasturiy tadbirlarni qamrab olgan, uzoq muddatga mo'ljallangan Hamkorlikni rivojlantirish konsepsiyasini qabul qilishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Ushbu hujjatni ishlab chiqish uchun "Markaziy Osiyo – Germaniya" tahlil markazlari forumini ta'sis etish imkoniyatlarini ko'rib chiqishni taklif qilamiz. Uning birinchi majlisini kelgusi yili nemis-mennonitlarining katta jamoasi yashagan mintaqadagi qadimiy shaharlardan biri – Xivada o'tkazishga tayyormiz.

Shuningdek, sammitlarimiz kun tartibini tayyorlashda mamlakatlarimiz tashqi siyosat idoralari rahbarlarining yillik uchrashuvlariga muhim ahamiyat qaratamiz.

**Ikkinchi.** Germaniyaning yetakchi kompaniyalari bilan investitsiyaviy va texnologik sheriklik.

Shuni ta'kidlashni istardimki, O'zbekistonda nemis kompaniyalari ishtirokida amalga oshirilayotgan va istiqbolli loyihalar umumiy portfeli 20 milliard yevrodan oshadi. Ular energetika, kimyo va tog'-kon sanoati, mashinasozlik, to'qimachilik va oziq-ovqat sanoati, qishloq xo'jaligi, transport va logistika, qurilish materiallari ishlab chiqarish kabi yo'nalishlarni qamrab oladi.

Sheriklarimiz orasida Germaniyaning yetakchi, jumladan, "Siemens", "Linde Group", "BASF", "MAN", "Claas", "Henkel", "Knauf" kompaniyalari va boshqa ishlab chiqaruvchilari so'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotiga 6 milliard yevro sarmoya kiritdi.

Bugun bizda nemis biznesi vakillari bilan istiqbolli rejalarni muhokama qilish imkoniyati bo'ladi.

Ishbilarmonlikka doir hamkorlikni rivojlantirish maqsadida quyidagilarni taklif etaman: Markaziy Osiyo mamlakatlari va Germaniya sarmoyaviy va texnologik hamkorligini kengaytirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ni ishlab chiqish; chegara hududlarida tashkil etilayotgan maxsus iqtisodiy va sanoat zonalaridagi loyihalar, mintaqaviy ahamiyatga ega yirik infratuzilma loyihalarini amalga oshirishga yetakchi nemis kompaniyalari va banklarini jalb etish; doimiy biznes-muloqot maydonchasi – "Markaziy Osiyo va Germaniya" investor va tadbirkorlari kengashini ishga tushirish. Uning birinchi uchrashuvini kelgusi yili O'zbekistonda, Toshkent investitsiya forumi doirasida o'tkazishga tayyormiz; investitsiyalarni rag'batlantirish va himoya qilish to'g'risidagi ko'p tomonlama hukumatlararo bitimni qabul qilish imkoniyatini ko'rib chiqish.

**Uchinchi.** Germaniyaning ilg'or bilim va texnologiyalarini joriy etish asosida muhim xomashyo resurslari sohasida sheriklik.

Ta'kidlab o'tilganidek, mintaqamiz foydali qazilmalarga boy. Germaniya mineral resurslar agentligi va nemis kompaniyalari bu sohada bizning muhim sheriklarimiz bo'lishi mumkin. Bu o'rinda gap geologik razvedka, konlarni jadal o'zlashtirish, qayta ishlash va yuqori qo'shimcha qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish, Germaniya va Yevropa Ittifoqining boshqa mamlakatlariga mahsulot yetkazib berishni tashkil etish borasidagi loyihalar haqida bormoqda. O'zbekiston qo'shni mamlakatlarda bunday loyihalarni birgalikda amalga oshirishga tayyor.

Mintaqamizda aniqlangan muhim xomashyo va nodir metallar konlarining raqamli xaritasini yaratish bo'yicha dasturni ishlab chiqishda Germaniya texnik ko'magini jalb etish istiqbolli hisoblanadi. Shuningdek, bu sohadagi hamkorlikning ishonchli huquqiy bazasini shakllantirish muhim deb hisoblaymiz.

**To'rtinchi.** "Yashil" energetika.

So'nggi yillarda mintaqamizdagi barcha mamlakatlar quyosh, shamol va suv energetikasini faol rivojlantirmoqda, issiqlik stansiyalari va tarmoqlarini modernizatsiya qilmoqda, "yashil" vodorod loyihalarini ilgari surmoqda.

Energetika vazirliklari, korporatsiyalar, operatorlar, ilmiy tashkilotlar, loyiha institutlari va tarmoq ekspertlarini jalb etgan holda Markaziy Osiyo mamlakatlarining Germaniya bilan Energetika sohasidagi muloqotini yo'lga qo'yish imkoniyatini ko'rib chiqishni taklif etamiz.

Biz Germaniya texnik ko'magini jalb etgan holda Kam uglerodli iqtisodiyot sohasida mutaxassislar salohiyatini oshirish bo'yicha kompleks dasturni tayyorlashdan manfaatdormiz.

**Beshinchi.** Iqlim o'zgarishlariga birgalikda javob qaytarish.

Ekspertlarning bashoratiga ko'ra Markaziy Osiyo mintaqasi global isish oqibatlari oldida hammadan ko'ra zaif bo'lib qolaveradi. Mintaqada o'rtacha haroratning oshishi jahondagi umumiy ko'rsatkichdan ikki barobar ko'proq bo'ladi.

Germaniya tomoniga "Yashil Markaziy Osiyo" dasturining ikkinchi fazasi ishga tushirilgani, ekologik loyihalarni amalga oshirishda ko'rsatilayotgan yordam uchun minnatdorlik bildiramiz. Biz Atrof-muhit va iqlim o'zgarishlarini o'rganish bo'yicha Markaziy Osiyo universiteti bazasida qo'shma ta'lim dasturlari va ilmiy almashuvlarni amalga oshirish, suvdan oqilona foydalanishda nemis texnologiyalarini joriy etish, irrigatsiya tizimlarini modernizatsiya qilish, bioxilma-xillikni saqlash, mutaxassis-ekologlarni tayyorlashda hamkorlik dasturlarini qabul qilishdan manfaatdormiz.

Germaniya Kanslerining Markaziy Osiyo tabiat hamkorligini yaratish borasidagi tashabbusini qo'llab-quvvatlaymiz va amalga oshirishda faol ishtirok etishga tayyormiz.

**Oltinchi.** Transport kommunikatsiyalari, shu jumladan, yer usti va havo tashuvlari yaxshi rivojlanmagani hamkorlikni chuqurlashtirishda eng katta to'siq bo'lmoqda.

Markaziy Osiyoni Yevropa bilan bog'laydigan muqobil transport yo'laklarini rivojlantirish borasida Yevropa institutlarini jalb etishda Germaniyaning ko'magiga umid qilamiz. Kelgusi yilda bunday yo'nalishlar tranzit salohiyatini oshirish yo'llarini topish bo'yicha vazirlarning qo'shma konferensiyasini o'tkazishni taklif etamiz.

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

O'tgan yili Berlin Yangi muzeyida tashkil etilgan mintaqamiz madaniy-tarixiy merosi ko'rgazmasi bunday tadbirlarni doimiy ravishda o'tkazishga katta ehtiyoj mavjud ekanini yana bir bor ko'rsatdi. Ko'rgazmaning bir necha oylik faoliyati davomida Germaniya poytaxti aholisi va mehmonlaridan yarim milliondan ortig'i tashrif buyurdi.

Biz mamlakatlarimizda Madaniy tadbirlar qo'shma rejasi qabul qilinishi tarafdorimiz, Germaniyaning yirik shaharlarida Markaziy Osiyo san'ati va kinosi kunlarini o'tkazish imkoniyatlarini ko'rib chiqishni, muzeylar hamkorligini yo'lga qo'yishni taklif etamiz.

Ilmiy-ma'rifiy almashuvlar sohasida yetakchi oliy ta'lim muassasalari hamkorligi uchun platformani ishga tushirish, dual ta'lim sohasidagi hamkorlikni kengaytirish, Gyote instituti va Germaniyaning boshqa tashkilotlarini jalb qilgan holda nemis tili o'qituvchilarini tayyorlash bo'yicha dasturlar ishlab chiqishni dolzarb vazifa, deb hisoblaymiz.

Shu yilning yozida Gyottingen shahrida bo'lib o'tgan Butunjahon olimpiadasida o'zbekistonlik maktab o'quvchisi erishgan g'alaba ham yoshlarimizning nemis tilini o'rganishga bo'lgan katta qiziqishidan dalolat beradi.

Hurmatli hamkasblar!

Terrorizm, ekstremizm va kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish, yoshlarning radikallashuvining oldini olish bo'yicha yaqin hamkorlikni davom ettirish muhim, deb hisoblaymiz.

Markaziy Osiyoda xavfsizlik sohasidagi vaziyat Afg'onistonda ro'y berayotgan jarayonlar bilan uzviy bog'liqdir.

O'z muammolari bilan deyarli yakka o'zi qolgan bu mamlakatda gumanitar inqirozning yanada chuqurlashib ketishiga yo'l qo'ymaslik muhim, deb hisoblaymiz.

Shu munosabat bilan Germaniya va Yevropadagi boshqa sheriklarimiz bilan ushbu mamlakatni mintaqaviy iqtisodiy hamkorlikka jalb etish, chegara yonida joylashgan Termiz shahridagi Ta'lim markazida Afg'onistonning tinch hayoti uchun zarur bo'lgan mutaxassisliklar bo'yicha kadrlar, jumladan, xotin-qizlarni tayyorlashga qaratilgan qo'shma loyihalarni amalga oshirishga tayyormiz.

So'zimning yakunida shuni alohida ta'kidlamoqchimanki, O'zbekiston Germaniyaning Markaziy Osiyo mintaqasi bilan ko'p qirrali hamkorlik bo'yicha salohiyati yanada to'liqroq ro'yobga chiqishidan manfaatdor.

Ishonchim komil, bugungi uchrashuvimiz mamlakatlarimiz va xalqlarimizni yanada yaqinlashtirishga xizmat qiladi, strategik sherikligimizni aniq loyiha va dasturlar bilan to'ldirish imkonini beradi.

Xalq so'zi
2024-yil 17-sentabr

# MARKAZIY OSIYO VA GERMANIYA: HAMKORLIK ISTIQBOLLARIGA YO'NALTIRILGAN MUHIM TAKLIF VA TASHABBUSLAR

1

Germaniyaning ilg'or bilim va texnologiyalarini joriy etish asosida o'ta muhim xomashyo resurslari sohasidagi hamkorlik istiqbolli yo'nalish sifatida ko'rsatib o'tildi.

– Bu o'rinda gap geologiya razvedkasi, jadal o'zlashtirish, qayta ishlash, yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish, Germaniya va Yevropa Ittifoqining boshqa mamlakatlariga yetkazib berish loyihalari haqida bormoqda, – dedi davlatimiz rahbari.

O'zbekiston bunday loyihalarni qo'shni davlatlarda birgalikda amalga oshirishda ishtirok etishga tayyorligi bildirildi.

Bundan tashqari, mintaqada aniqlangan o'ta muhim minerallar va nodir metallar konlarining raqamli xaritalarini yaratish dasturini amalga oshirishda Germaniyaning texnik ko'magini jalb qilishdan mamlakatimiz manfaatdor. Bunday hamkorlikning ishonchli huquqiy bazasini shakllantirish muhimligi ta'kidlandi.

"Yashil" energetika sohasidagi hamkorlik alohida ahamiyat kasb etmoqda.

– So'nggi yillarda mamlakatlarimizda quyosh, shamol, gidroenergetika faol rivojlanmoqda, issiqlik stansiyalari va tarmoqlari modernizatsiya qilinmoqda, "yashil" vodorod loyihalari ilgari surilmoqda, – dedi O'zbekiston yetakchisi.

Davlatimiz rahbari energetika vazirliklari, yirik korporatsiyalar, operatorlar, ilmiy tashkilotlar va soha mutaxassislarini jalb qilgan holda Markaziy Osiyo mamlakatlarining Germaniya bilan Energetika muloqotini yo'lga qo'yishni taklif qildi.

Germaniya texnik ko'magini jalb qilgan holda kam uglerodli iqtisodiyot sohasida mutaxassislar salohiyatini oshirish bo'yicha kompleks dasturni tayyorlashga qiziqish bildirildi.

Iqlim o'zgarishiga qarshi birgalikda kurashish alohida dolzarblik kasb etgan.

Shu munosabat bilan Markaziy Osiyo universiteti negizida atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish bo'yicha qo'shma ta'lim dasturlari va ilmiy almashinuvlarni kengaytirish, shuningdek, Germaniyaning suvdan oqilona foydalanish texnologiyalarini joriy etish, sug'orish tizimlarini modernizatsiya qilish, biologik xilmaxillikni saqlash, ekolog mutaxassislar tayyorlash bo'yicha hamkorlik dasturlarini qabul qilish taklif etildi.

O'zbekiston Germaniya Kansleri tomonidan ilgari surilgan Markaziy Osiyo tabiat hamkorligini yo'lga qo'yish tashabbusini qo'llab-quvvatlash va uni amalda ro'yobga chiqarishda faol ishtirok etishga tayyor.

– Transport kommunikatsiyalarining, jumladan, yer usti va havo tashuvlarining zaif rivojlanganligi sherikligimizni chuqurlashtirishda eng katta to'siq bo'lmoqda, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Shu munosabat bilan Prezidentimiz Germaniya tomonini Markaziy Osiyoni Yevropa bilan bog'laydigan muqobil transport yo'laklarini rivojlantirishga Yevropa institutlarini jalb qilishda ko'maklashishga chaqirdi.

Davlatimiz rahbari 2025-yilda bunday yo'nalishlarning tranzit salohiyatini oshirish yo'llarini izlash bo'yicha vazirlar konferensiyasini o'tkazishni taklif etdi.

O'zbekiston Prezidenti madaniy-gumanitar hamkorlikni rivojlantirish muhimligini ta'kidlab, qo'shma Madaniy tadbirlar rejasini qabul qilish, Germaniyaning yirik shaharlarida Markaziy Osiyo san'ati va kinosi kunlarini o'tkazish, muzeylarning o'zaro hamkorligini yo'lga qo'yish taklifini ilgari surdi.

Ilmiy-ta'lim almashinuvi sohasida yetakchi oliy ta'lim muassasalarining hamkorlik platformasini ishga tushirish, Gyote instituti va Germaniyaning boshqa tashkilotlarini jalb etgan holda dual ta'lim sohasida hamkorlikni kengaytirish dasturlarini ishlab chiqish, nemis tili o'qituvchilarini tayyorlash muhimligi ta'kidlandi.

Shuningdek, Germaniya bilan terrorizm, ekstremizm va kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish, yoshlar radikallashuvining oldini olish masalalarida yaqin hamkorlikni davom ettirish zarurligi qayd etildi.

O'zbekiston rahbari Markaziy Osiyoda xavfsizlik sohasidagi vaziyat Afg'onistonda ro'y berayotgan jarayonlar bilan chambarchas bog'liq ekanini ta'kidladi.

– O'z muammolari bilan deyarli yakka o'zi qolgan ushbu mamlakatda gumanitar inqirozning chuqurlashib ketishiga yo'l qo'ymaslik muhim, deb hisoblaymiz, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Shu bois Germaniya va Yevropaning boshqa davlatlari bilan birgalikda Afg'onistonni mintaqaviy iqtisodiy hamkorlikka jalb qilish va chegaradosh Termiz shahridagi Ta'lim markazi negizida Afg'oniston tinch hayoti uchun zarur bo'lgan mutaxassisliklar bo'yicha kadrlar, shu jumladan, xotin-qizlarni tayyorlashga qaratilgan qo'shma loyihalarni amalga oshirishga tayyorlik bildirdi.

Sammitda Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari va Germaniya Kansleri ham so'zga chiqdi.

Tadbir yakunida Qo'shma bayonot qabul qilindi.

Ostona shahriga tashrif dasturiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Markaziy Osiyo mamlakatlari yetakchilari hamda Germaniyaning ilg'or kompaniya va banklari rahbarlarining uchrashuvida ishtirok etdi.

Tadbirda Germaniya Federal Kansleri Olaf Shols, Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev, Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon va Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov ham qatnashdi.

Germaniya ishbilarmon doiralariga "KNAUF", "Gunter Papenburg", "CLAAS", "Siemens Energy", "Aurubis", "Ernst Klett", "Siemens Healthineers", "Herrenknecht", "DB Engineering & Consulting", "Svevind Energy", "Rhenus", "HMS Bergbau" kabi yetakchi kompaniya va banklar rahbarlari vakillik qildi.

O'zbekiston Prezidenti ishtirokchilarni samimiy qutlar ekan, kuni kecha Samarqand shahrida Germaniya ishbilarmonlari bilan bo'lib o'tgan samarali uchrashuvning muvaffaqiyatli natijalarini mamnuniyat bilan qayd etdi.

Muzokaralar natijalari mamlakatlarimiz tadbirkorlarida o'zaro hamkorlikni chuqurlashtirish, Germaniya ilg'or tajribasi va innovatsion texnologik yechimlari asosida qo'shma loyihalarni amalga oshirishga bo'lgan qiziqishi ortib borayotganini ko'rsatdi.

Davlatimiz rahbari mintaqaviy hamkorlik doirasida Germaniya bilan sheriklikni yanada kengaytirish masalalariga alohida e'tibor qaratdi.

Markaziy Osiyo mintaqasi bugungi kunda barqaror iqtisodiy rivojlanish sur'atlarini namoyon etayotgan keng va jadal bozor ekani ta'kidlandi.

Bunga davlatlar o'rtasidagi chegaralarning ochilgani, mintaqa ichidagi tovar ayirboshlash, investitsiyalar, yuk tashish hajmi, sayyohlar bordi-keldisi ko'payishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratilgani xizmat qildi.

Davlatimiz rahbari Markaziy Osiyo mintaqasining investitsiyaviy jozibadorligini oshirish muhimligiga alohida e'tibor qaratdi.

Shu nuqtayi nazardan, bugun bo'lib o'tgan sammitda o'zaro manfaatli muloqot uchun doimiy maydon – "Markaziy Osiyo va Germaniya" investor va tadbirkorlari kengashini ta'sis etish va uning birinchi uchrashuvini kelgusi yil bahorida Toshkent investitsiya forumi doirasida o'tkazish tashabbusi ilgari surildi.

Davlatimiz rahbari, shuningdek, Markaziy Osiyo mamlakatlari va Germaniya o'rtasidagi investitsiyaviy va texnologik hamkorlikni kengaytirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ni tayyorlashni taklif qildi. Ushbu hujjatga Germaniya kompaniyalari investitsiyalari oqimini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, shuningdek, ularning Markaziy Osiyo mamlakatlaridagi faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari kiritilishi mumkin.

Bugungi kunda mintaqadagi hamkorlar bilan qo'shma investitsiya fondlari va kompaniyalari ko'magida maxsus iqtisodiy zonalar va industrial xablar tashkil etilmoqda, sanoat, "yashil" energetika, qishloq xo'jaligida yirik loyihalar amalga oshirilmoqda, infratuzilma modernizatsiya qilinmoqda.

Bunday loyihalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida xorijiy mamlakatlarning yetakchi muhandislik markazlari, investitsiya va sanoat korxonalari faol jalb etilmoqda.

Davlatimiz rahbari Germaniya

# BRITANIYALIK EKSPERTLAR YURTIMIZDAGI ISLOHOTLARNI YUQORI BAHOLADI

*Yaqinda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisining birinchi o'rinbosari S. Safoyev Buyuk Britaniyaga tashrifi doirasida Xalqaro strategik tadqiqotlar instituti hamda Oksford islom tadqiqotlari markazi vakillari bilan uchrashuvlar o'tkazdi.*

**Muloqot**

Davra suhbati tarzida kechgan uchrashuvlar davomida O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlari, Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlik masalalari, shuningdek, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik va bozor islohotlari muhokama qilindi. Bo'lajak parlament saylovlari va dolzarb mintaqaviy muammolarga alohida e'tibor qaratildi.

Britaniyalik ekspertlar Prezident Shavkat Mirziyoyev boshchiligida olib borilayotgan islohotlarni yuqori baholab, ularning nafaqat O'zbekiston, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasi barqarorligi va taraqqiyotiga katta ta'siri borligini ta'kidladi.

Uchrashuvlar yakunlari bo'yicha O'zbekiston va Buyuk Britaniya tahlil markazlari o'rtasida yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim jihatlari hamda Markaziy Osiyoda mintaqaviy rivojlanish bo'yicha qo'shma tadqiqot, seminar va konferensiyalar o'tkazish orqali amaliy hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha kelishuvlarga erishildi.

**"Xalq so'zi".**

# O'ZARO ALOQALAR YANGI BOSQICHGA KO'TARILMOQDA

*Oxirgi yillarda O'zbekiston har tomonlama rivojlanmoqda va jahon maydonida o'zining mustahkam o'rni hamda ovoziga ega bo'lib bormoqda. Buni xalqaro minbarlarda davlatimiz rahbari tomonidan ko'plab g'oya va tashabbuslar ilgari surilayotgani, eng muhimi, ular e'tirof etib kelinayotgani misolida ham ko'rish mumkin.*

**Munosabat**

Ostona shahrida bo'lib o'tgan "Markaziy Osiyo – Germaniya" ikkinchi sammiti jarayonida yana bir bor shunga guvoh bo'ldik. Ya'ni O'zbekiston yetakchisi tomonidan mintaqa uchun ahamiyatli bo'lgan taklif va tashabbuslar ilgari surildi.

Avvalo, keyingi yillarda Markaziy Osiyoda mutlaqo ijobiy muhit qaror topib borayotganligini alohida ta'kidlash zarur. Xususan, mintaqa davlatlari bilan yaqin qo'shnichilik munosabatlari yo'lga qo'yildi, ochiq va samarali muloqot o'rnatildi. Shu sa'y-harakatlar natijasida chegara, suv, energetika, savdo va tranzit bilan bog'liq ko'plab masalalar muvaffaqiyatli hal qilinmoqda. Bularning barchasida mamlakatimiz rahbarining tarixiy xizmatlari mujassam.

Yangi taklif va tashabbuslar ana shu yutuqlarimizning bardavomligini ta'minlash hamda yangi marralarni egallashga yo'naltirilganligi bilan e'tiborga molik. Bu o'rinda so'z Markaziy Osiyo davlatlari hamda Germaniya hamkorligi istiqbollari haqida bormoqda.

Sir emas, oxirgi bir necha yillarda mintaqamizning xalqaro subyekt sifatidagi o'rni mustahkamlandi, jahonning yetakchi mamlakatlari bilan "Markaziy Osiyo plyus" formatidagi hamkorligi kengaymoqda. Yevropa Ittifoqi, ayniqsa, Germaniya mintaqamiz davlatlari bilan hamkorlik bo'yicha strategiya hamda ko'p tomonlama dasturlarning asosiy tashabbuskori bo'layotganligini aytish zarur.

Buni Germaniya Federal Kansleri Olaf Sholsning yurtimizga amalga oshirgan tashrifi jarayonida erishilgan turli kelishuvlar va imzolangan bitimlar, xususan, o'zaro aloqalarni mustahkamlash yo'lida qabul qilingan bir qator hujjatlar ham yaqqol tasdiqlaydi.

Shu bois Ostona sammitida Prezidentimiz Markaziy Osiyo va Germaniya o'rtasidagi amaliy sheriklikni rivojlantirish muhimligini ta'kidlagani holda mazkur hamkorlikni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlariga alohida to'xtaldi hamda o'z takliflarini bildirdi.

Avvalo, ustuvor sohalarda dasturiy tadbirlarni qamrab olgan uzoq muddatli Hamkorlikni rivojlantirish konsepsiyasini qabul qilish va uni ishlab chiqish uchun "Markaziy Osiyo – Germaniya" tahliliy markazlari forumini ta'sis etish taklifi ilgari surildi. Ushbu taklif mintaqamiz va Germaniya hamkorligi istiqbollarida qanchalik katta ahamiyatga egaligini tushunish unchalik qiyin emas.

Navbatdagi tashabbus ham hamkorlikni mustahkamlashga qaratilganligi bilan diqqatga sazovor. Zero, mintaqamiz rivojida, shubhasiz, shu singari hamkorlik aloqalarining o'rni beqiyos.

Kezi kelganda O'zbekistonda nemis kompaniyalari ishtirokida amalga oshirilgan va istiqboldagi



loyihalar umumiy qiymati 20 milliard yevrodan ortganini mamnuniyat bilan aytmoqchimiz. Germaniyaning "Simens", "Linde", "BASF", "MAN", "Klaas", "Xenkel", "Knauf" va boshqa ko'plab yetakchi kompaniyalari so'nggi bir necha yilda O'zbekiston iqtisodiyotiga 6 milliard yevro sarmoya kiritdi.

Endilikda ana shu aloqalarni yangi bosqichga ko'tarishdan barcha birdek manfaatdor.

Prezidentimiz tomonidan mintaqamizda muhim xomashyo va nodir yer osti metallari aniqlangan konlar raqamli kartasini yaratish bo'yicha dasturni ishlab chiqishda Germaniya texnik ko'magini jalb etish, Markaziy Osiyo davlatlarining Germaniya bilan Energetik muloqotini yo'lga qo'yish imkoniyatlarini ko'rib chiqish, ushbu mamlakat texnik ko'magini jalb etgan holda kam uglerodli iqtisodiyot sohasida mutaxassislarimiz salohiyatini oshirish kompleks dasturini tayyorlash masalalariga ham keng urg'u qaratildi.

Qolaversa, Markaziy Osiyoni Yevropa bilan bog'lovchi muqobil transport yo'laklarini rivojlantirishga Yevropa institutlarini jalb etishda Germaniya ko'magi muhimligiga e'tibor qaratilib, kelgusi yili ushbu yo'nalishlar tranzit salohiyatini oshirish yo'llarini izlash bo'yicha vazirlar qo'shma konferensiyasini o'tkazish taklifi bildirildi.

Ko'rinib turibdiki, har bir taklif va tashabbus nafaqat zalvarli, ayni chog'da mintaqamizdagi davlatlar uchun birdek manfaatli. Shu ma'noda, biz, parlament vakillaridan ushbu hamkorlik aloqalarini mustahkamlashga hissa qo'shish yo'lida faollik ko'rsatish talab etiladi.

**Mahmudjon PARPIYEV,**
**Oliy Majlis Senatining Axborot siyosati va davlat organlarida ochiqlikni ta'minlash masalalari qo'mitasi a'zosi.**

**SENAT QO'MITASIDA**

# HUDUDIY DASTURLAR IJROSI O'RGANILDI

**Oliy Majlis Senati Budjet va iqtisodiy islohotlar masalalari qo'mitasining navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi.**

Unda "Yer qa'ri to'g'risida"gi qonun dastlabki tarzda muhokama etildi. Qonun bilan yer osti boyliklariga egalik qilish va ularni tasarruf etish, shuningdek, yer qa'ridan foydalanish hamda uni muhofaza qilish chog'ida yuzaga keladigan munosabatlar tartibga solinadi.

Qonunda yer qa'ri uchastkalarining resurslari, yer osti boyliklaridan foydalanish borasidagi maxsus vakolatli davlat organlari ro'yxati va ularning vakolat doiralari ham aniq belgilab qo'yilmoqda.

Qolaversa, foydali qazilmalar o'rganilishi va iqtisodiy asoslarga ko'ra klassifikatsiyalanib, ularning tushunchalari hamda yer qa'ri uchastkalarining davlat fondiga yangi "zaxira fondi" tushunchasi kiritilib, uning mohiyati yoritib berilmoqda.

Yer osti boyliklari to'g'risidagi ma'lumotlar ochiqligi nazarda tutilib, yer qa'ri uchastkalaridan foydalanish tartib-taomili takomillashtirilmoqda.

Qonun senatorlar tomonidan keng muhokama qilinib, Senatning galdagi yalpi majlisiga kiritilishi belgilandi.

Majlisda Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan "Yo'l xaritasi" ijrosi hamda mazkur viloyatlarda aholining turmush darajasini yanada yaxshilash va bandligini ta'minlash, ish o'rinlarini yaratish, tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan ishlar holati muhokama qilindi.

Xususan, investitsiya dasturlari doirasida Qashqadaryoda 111,8 mln. dollarlik 253 ta, Surxondaryoda 171,1 mln. dollarlik 349 ta loyiha ishga tushirilgan. Qashqadaryo viloyatida 421,1 mln. va Surxondaryo viloyatida 494,2 mln. dollarlik to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar o'zlashtirilgan.

Surxondaryoda mahalliylashtirish bo'yicha tarmoq va hududiy korxonalar o'rtasida sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish, ishlab chiqarishda zanjirli tizimni kengaytirish maqsadida 36 ta loyiha bajarilib, 176,3 mlrd. so'mlik import o'rnini bosuvchi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan.

O'z navbatida, majlisda hududlardagi yechimini kutayotgan kamchiliklar va muammoli masalalar xususida ham so'z yuritildi.

Qo'mita majlisida vazirlik va idoralar, viloyatlar mas'ul rahbarlari axborotlari eshitildi.

Majlisda muhokama etilgan masalalar yuzasidan Senat qo'mitasining tegishli qarorlari qabul qilindi.

**"Xalq so'zi".**

# QIZG'IN FIKR-MULOHAZALAR —



*Kecha Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi. Quyi palata Spikeri N. Ismoilov majlis avvalida o'tgan haftada yurtimiz ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy hayotidagi muhim voqealarga to'xtalib o'tdi. Xususan, Prezidentimiz raisligida 11-sentabr kuni kambag'allikni qisqartirish ishlarini keyingi sifat bosqichiga olib chiqish masalalari muhokamasi bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida bir qator muhim tashabbuslar ilgari surilgani, ularning hayotga samarali tatbiq etilishida parlament a'zolari ham faol qatnashishi lozimligini ta'kidladi.*

*Kun tartibi tasdiqlangach, majlisda dolzarb qonun loyihalari, xususan, Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili faoliyatini, qishloq xo'jaligi kooperativi va temir yo'l transporti sohasidagi munosabatlarni tartibga solishga, karantin ostidagi mahsulotlarning fumigatsiyasi bo'yicha faoliyatni amalga oshirishda qulaylik yaratishga, sug'urta qildiruvchilarga davlat bojini to'lashda imtiyoz berishga, tadbirkorlarning moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga, ortiqcha ma'muriy tartib-taomillarni bartaraf etishga qaratilgan hujjatlar atroflicha ko'rib chiqildi.*

**Oliy Majlis Qonunchilik palatasida**

## Ombudsman vakolatlari kengaytirilmoqda

Majlisda "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) to'g'risida"gi qonun loyihasi ikkinchi o'qishda moddama-modda ko'rib chiqildi.

Qonun loyihasida nazarda tutilganidek, Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) mansabdor shaxs bo'lib, u davlat organlari, shu jumladan, huquqni muhofaza etuvchi va nazorat qiluvchi organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar hamda mansabdor shaxslarning inson huquqlari va erkinliklari to'g'risidagi qonunchilikka rioya etishi ustidan parlament nazoratini amalga oshiradi.

Shuningdek, inson huquqlari bo'yicha milliy institut sifatida inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning mavjud shakllari hamda vositalarini to'ldiradi. Ombudsman O'zbekiston Respublikasining inson huquqlari va erkinliklari to'g'risidagi qonunchiligini takomillashtirishga hamda uni xalqaro huquq normalariga muvofiqlashtirishga, inson huquqlari va erkinliklari sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga, fuqarolarning ushbu sohadagi huquqiy madaniyatini oshirishga ko'maklashadi.

Ta'kidlanganidek, mazkur qonun loyihasi bilan Ombudsman faoliyatining institutsional asoslari takomillashtirilib, uning inson huquq va erkinliklariga rioya qilinishini ta'minlash borasidagi vakolatlarini kengaytirishga qaratilgan mutlaqo yangi institut – O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga, Oliy Majlis palatalariga, shuningdek, Vazirlar Mahkamasiga "maxsus ma'ruza" taqdim etish huquqi belgilab qo'yilmoqda.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasining inson huquqlari sohasidagi xalqaro majburiyatlarining bajarilishi yuzasidan muqobil ma'ruza tayyorlashga hamda tegishli xalqaro tashkilotlarga taqdim qilishga haqli ekani belgilanmoqda. Bundan tashqari, Ombudsman ta'sir choralarining turlariga aniqlik kiritilgan holda, (ogohlantirish, taqdimnoma, iltimosnoma va talabnoma) alohida bobda, har bir ta'sir chorasi alohida-alohida moddada aks ettirilyapti.

Ichki ishlar organlari tizimiga kiradigan ma'muriy qamoqqa olingan shaxslarni qabul qilish va saqlash uchun mo'ljallangan maxsus muassasalarda, voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazlarida, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining garnizoni hamda qo'shin gauptvaxtalarida, vaqtincha saqlash va tergov hibsxonalarida, jazoni ijro etish muassasalarida, intizomiy qismlarda, majburiy davolash muassasalarida saqlanayotgan shaxslarning murojaatlari bilan ishlash, ular bilan uchrashuv va suhbatlar o'tkazishga oid huquqlari mustahkamlanmoqda.

Ombudsman faoliyatida inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar, jumladan, Oliy Majlisning Bola huquqlari bo'yicha vakili (Bolalar ombudsmani), Prezident huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil, Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi bilan hamkorligi aniqlashtirilmoqda.

Muhokama chog'ida deputatlar tomonidan qonun loyihasi yuzasidan aniqlashtiruvchi savollar berildi hamda ayrim normalarga tahririy tuzatishlar kiritildi. Xalq vakillarining fikricha, qonun loyihasi Inson huquqlari bo'yicha vakil (ombudsman) huquqlari kengaytirilishiga va majburiyatlari aniqlashtirilishiga xizmat qiladi.

Savol-javoblardan so'ng qonun loyihasi deputatlar tomonidan qabul qilindi va Senatga yuborildi.

## Fitosanitar zararsizlantirish faoliyatida yangi usullar

Majlisda "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi ham muhokama markazida bo'ldi.

Ushbu qonun loyihasi bilan O'zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqilayotgan karantin ostidagi mahsulotni zararsizlantirish (fumigatsiya) faoliyatida raqobat muhitini shakllantirish va mazkur tadbirlarning samaradorligini oshirish, shuningdek, fumigatsiya faoliyatining atrof-muhitga va fumigatsiya qilinayotgan mahsulotga ta'siri kam bo'lgan usullarini joriy etish maqsadida fitosanitar zararsizlantirish xizmatlarini xususiy sektorga o'tkazish nazarda tutilmoqda.

Shu bilan birga, karantin ostidagi mahsulotlarni zararsizlantirish (fumigatsiya) faoliyatini litsenziyalash tartibi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanishi, litsenziyalash bilan bog'liq vakolatlar esa Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi O'simliklar karantini va himoyasi agentligiga berilmoqda.

Qonun loyihasida O'zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqilayotgan karantin ostidagi mahsulotni zararsizlantirish (fumigatsiya) faoliyatini litsenziyasiz amalga oshirganlik yoki litsenziyalarni qalbaki hujjatlardan foydalangan holda olganlik uchun jarima belgilash nazarda tutilyapti.

Majlisda qonun loyihasini ikkinchi o'qishga tayyorlashda loyihaning kirish qismi batafsil ochib berilgani hamda normalarning amaliyotda tushunarliligini ta'minlash maqsadida tahririy tuzatishlar qilingani qayd etildi. Shuningdek, Vazirlar Mahkamasi tomonidan mamlakat hududidan olib chiqilayotgan karantin ostidagi mahsulotning fumigatsiyasi bo'yicha faoliyatni litsenziyalash tartibini ishlab chiqish va tasdiqlash yuzasidan aniq muddat belgilandi.

Deputatlarning aytishicha, qonun loyihasining qabul qilinishi karantin osti mahsulotlarini fitosanitar zararsizlantirish faoliyatining samaradorligini oshirishga yo'l ochadi.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan qabul qilindi.

## Endilikda hayvonlar identifikatsiya qilinishi mumkin

Deputatlar tomonidan ko'rib chiqilgan navbatdagi hujjat – "Hayvonlarni identifikatsiya qilish, ro'yxatga olish va kuzatish to'g'risida"gi qonun loyihasi bo'ldi.

Mazkur qonun loyihasida hayvonlar hisobini yuritish, ularning nasli bilan bog'liq va sog'lig'i to'g'risidagi yagona elektron tizimni yaratish belgilanayotir. Hayvonlarni identifikatsiya qiluvchi, ro'yxatga oluvchi va kuzatuvchi mutaxassislarning, identifikatsiya raqamini saqlovchi atribut ishlab chiqaruvchi va hayvon egalarining huquq va majburiyatlari belgilab berilyapti.

Qonun tashabbuskorlarining aytishicha, qonun loyihasi bilan jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan saqlanadigan (parvarish qilinadigan) va urchitiladigan uy hayvonlari – qoramol, qo'y va echki, cho'chqa, ot, eshak, tuya, it, mushukning identifikatsiya qilinishi (vizual yoki elektron birkalarni hamda elektron mikrochiplarni hayvonlarga o'rnatish) nazarda tutilmoqda.

Qonun loyihasi ichki va tashqi bozor uchun hayvonlardan olinadigan mahsulot prognozi to'g'risida aniq ma'lumotlar bazasini shakllantirish, iste'mol uchun chiqariladigan barcha mahsulot to'g'risidagi ma'lumotlarni olish, hayvon egalarining hayvonga egalik qilish, foydalanish, tasarruf etish huquqlarini yanada kafolatlashga imkoniyat yaratadi.

**Yil boshidan buyon mamlakatimiz iqtisodiyotiga Germaniya kompaniyalarining 800 million yevrolik investitsiyalari jalb qilindi.**

# O‘ZBEKISTON KASABA UYUSHMALARI FAOLLARI VA RESPUBLIKA NURONIYLARINING O‘ZBEKISTON XALQIGA MUROJAATI

Qadrli vatandoshlar!

Jonajon O‘zbekistonimiz o‘z davlat mustaqilligining 33 yilligini keng nishonlab, ana shu davrda bosib o‘tgan g‘oyat murakkab va sharafli yo‘lda erishgan yutuq va marralarini chuqur tahlil va sarhisob etib, yanada ulkan vazifalarni belgilab olayotgan mana shu shukuhli kunlarda qalblarimizda Vatanga mehr va iftixor, o‘z kuch va imkoniyatlarimizga ishonch tuyg‘usi yanada kuchaymoqda.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida ishlab chiqilgan va izchil amalga oshirilayotgan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi amalda qanday ulkan natijalar berayotganini har birimiz o‘z hayotimiz va faoliyatimizda yaqqol ko‘rib, his etib kelmoqdamiz.

Qisqa muddatda mamlakatimizning siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-gumanitar yo‘nalishlardagi taraqqiyot sur’atlari keskin o‘zgarib, yangicha sifat va mazmun kasb etib, beqiyos qudrat va shiddatga ega bo‘lib bormoqda.

Eng muhimi, yurtimizda davlat va jamiyat tayanchi bo‘lgan xalqimizga, uning bunyodkorlik salohiyatiga munosabat tubdan o‘zgardi.

Inson, uning erkin va farovon hayoti barcha islohotlar markazida turadigan bosh maqsadga aylandi. Inson qadrini, huquq va manfaatlarini ta’minlash Konstitutsiya va qonunlarimiz darajasida qat’iy qoida sifatida mustahkamlanib, barcha darajadagi davlat hokimiyati organlari, rahbar xodimlar faoliyatining asosiy mezoni bo‘lib bormoqda.

Iqtisodiyotimizga jahon miqyosida ustuvor tendensiyaga aylanayotgan raqamli va “yashil” texnologiyalar jadal kirib kelmoqda. Mamlakatimizda tadbirkorlik va ishbilarmonlik misli ko‘rilmagan darajada rivojlanmoqda.

Dunyoda va mintaqamizda do‘stlarimiz va hamkorlarimiz ko‘payib, mamlakatimizning xalqaro miqyosdagi obro‘-e’tibori muttasil yuksalib bormoqda.

Hech shubhasiz, bularning barchasi hayotimizning turli xil sohalarida ilgari tasavvur ham qilib bo‘lmaydigan amaliy natijalar bermoqda.

Vatanimiz har tomonlama taraqqiy etgan, millati, tili va dinidan qat’i nazar, har bir inson erkin yashab, mehnat qiladigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarga ega farzandlarimiz o‘z baxtini aynan shu zaminda topadigan, dunyodagi eng go‘zal, tinch va farovon mamlakat bo‘lishini barchamiz orzu qilamiz va shu maqsad yo‘lida butun borlig‘imiz bilan harakat qilishga tayyormiz.

Davlatimiz rahbarining olib borayotgan keng ko‘lamli, oqilona siyosati, amalga oshirayotgan islohotlari ana shu ezgu maqsadga qaratilgandir.

Shu yo‘lda Yurtboshimizga kamarbasta bo‘lish – bu barchamiz intilayotgan kelajakni, oilamiz, farzandlarimizning baxtu saodatini ta’minlashning eng muhim sharti va garovidir.

Hurmatli yurtdoshlar!

Biz siz, azizlarga ana shunday ezgu da’vatlar bilan murojaat qilar ekanmiz, muhtaram Prezidentimiz tomonidan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining ajralmas bir qismi sifatida ilgari surilayotgan va keyingi yillarda maxsus davlat dasturi asosida amalga oshirilayotgan kambag‘allikni qisqartirish masalasiga alohida e’tiboringizni qaratmoqchimiz.

Davlatimiz rahbari Birlashgan Millatlar Tashkilotining yuksak minbaridan yurtimiz aholisining muayyan qismi o‘rtasida kambag‘allik borligini e’tirof etib, mamlakatimizda bu muammoni hal etishga qaror qilinganini jahon hamjamiyatiga e’lon qilgan edi.

Bu, hech shubhasiz, xalqimizga bo‘lgan yuksak mehr va g‘amxo‘rlik, O‘zbekistonni rivojlangan davlatlar qatoriga ko‘tarish yo‘lidagi qat’iy harakatlarning yana bir ifodasi edi.

Uchinchi Renessans poydevorini bunyod etishdek tarixiy missiyani zimmasiga olgan xalqimiz yetakchisi, avvalo, bu maqsadlar yo‘lida aholining kam ta’minlangan qatlami turmush sharoitini yaxshilash, uning hayotdan rozi bo‘lib, baxtli yashashini o‘zining eng oliy maqsadi qilib belgilagani millatimiz baxti emasmi?

Barchamizga ma’lumki, muhtaram Prezidentimiz kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha murosasiz kurashni boshlagan vaqtda 7,5 million yoki jami aholining 23 foizi kambag‘allik darajasida deb qayd etilgan edi.

Kambag‘al fuqarolarni kuchli va manzilli ijtimoiy himoya qilishni nazarda tutuvchi qonunchilik asoslari yaratildi, Ijtimoiy himoya milliy agentligi va “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari tashkil etildi, “temir daftar”, “ayollar daftari”, “yoshlar daftari”, “mehr daftari” kabi mutlaqo yangi tashkiliy-huquqiy mexanizmlar ishga tushirildi.

Bu yo‘nalishga sarflanayotgan mablag‘lar miqdori yildan-yilga izchil ko‘paytirildi.

Xususan, 2020-yilda aholini ijtimoiy himoya qilishga 3,7 trillion so‘m yo‘naltirilgan bo‘lsa, 2023-yilda 12,3 trillion so‘m sarflandi. So‘nggi 3 yilda pensiya va nafaqalar miqdori ham 1,5 baravar oshirildi.

Mahallada kambag‘allikni qisqartirish, tadbirkorlik loyihalarini moliyalashtirish uchun 35 trillion so‘mlik arzon kredit va 7 trillion so‘m subsidiya ajratildi, 260 ming gektar yer 800 ming aholiga daromad topishi uchun tarqatildi.

O‘tgan davrda aholimiz soni 3,7 million nafarga ko‘payishi bilan birga, kambag‘allikni belgilash chegarasi ham 1,5 karraga ko‘tarildi.

Samarali va adolatli ijtimoiy siyosat hamda manzilli va aniq chora-tadbirlar ko‘rilishi natijasida shu qisqa fursatda 3,5 million aholi yetarli darajada daromadli bo‘ldi va 2023-yil yakuni bilan kambag‘allik darajasining 11 foizga tushishiga erishildi.

Bu ko‘rsatkichlar Yangi O‘zbekistonning bosh shiori qilib “Inson qadri uchun!” degan xalqchil tamoyil belgilangani, aholining hayotini erkin va farovon qilish, odamlarni shu aziz yurt ravnaqi yo‘lida safarbar etishdek ulug‘ niyatni xalqimiz nechog‘li xayrixohlik va hamjihatlik bilan qarshi olayotganining yaqqol dalolatidir.

Aziz hamyurtlar!

Kuni kecha O‘zbekiston Prezidenti kambag‘allikni qisqartirish masalasini yana bir bor o‘ta jiddiy tarzda kun tartibiga olib chiqdi. Muhtaram Yurtboshimiz tashabbusi bilan kambag‘allikni qisqartirish davlat siyosatining eng muhim masalasi bo‘lib qolishi belgilandi.

Bu tarixiy qarordir!

Bundan buyon aholi daromadlarini oshirishdek ezgu maqsad davlat hokimiyati organlari mas’ullarining eng muhim vazifalaridan biri sifatida belgilandi.

Biz bugun Yangi O‘zbekiston xalqiga murojaat qilar ekanmiz, shunday savollarni o‘rtaga qo‘ymoqchimiz:

Kambag‘allik nima? U qanday paydo bo‘ladi va uning sabablari nimada? Kambag‘allikni qanday qilib yenga olamiz?

Kambag‘allik faqat qonunlar va farmonlar chiqarish bilan emas, balki jamiyatning umummilliy safarbarligi, birligi, shunday istak va intilish bilan yashashi hisobiga kamayadi.

Bunday falsafiy savoldan maqsad shuki, biz toki odamlarning dunyoqarashi, hayotga munosabatini to‘g‘ri shakllantira olmas ekanmiz, demak, ajdodlarimizga xos bo‘lmagan boqimandalik, o‘zibo‘larchilik kabi illatlar bizni uzoq yillar kambag‘allikda ushlab turaveradi.

O‘tgan yillar davomida kambag‘allikni qisqartirishga to‘siq bo‘layotgan muammolar ham chuqur tahlil qilindi. Bular orasida barchamizning ko‘z o‘ngimizda keng ommalashayotgan, xalqimizning azaliy urf-odatlariga yot bo‘lgan dabdababozlik, isrofgarchiliklar, kimo‘zarga to‘y-ma’rakalar o‘tkazish, hashamatli imoratlar solish kabilarni keltirib o‘tish mumkin.

Mamlakatimiz aholisining jadal sur’atlarda ko‘payayotgani qanchalar quvonarli bo‘lsa, navqiron avlodni o‘qitish, farzandlarni bilimli, hayotga tayyor qilib voyaga yetkazishdek ulkan vazifalar ham oldimizda ko‘ndalang turibdiki, millatning ertasini o‘ylaydigan xalq bu masalalarni chuqur mulohaza, o‘zaro yelkadoshlik va hamjihatlik bilangina hal qila olishini barchamiz teran anglaydigan vaqt keldi.

Shunday ekan, muhtaram Prezidentimiz raisligida kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida ilgari surilgan har bir masala ortida inson taqdiri, uning ertangi kuni, oila farovonligi va pirovard oqibatda yurt tinchligi, halollik, adolat ustuvorligi va jinoyatchilikning kamayishi turgani ayni haqiqatdir.

Shunday ekan, jamiyatda hech bir kishi bu ishda befarq qarab turishga haqli emas, deb o‘ylaymiz! Har bir mahalla faoli, maktablar va oliy ta’lim sohasi mutasaddilari o‘z faoliyatini adolat nuqtayi nazaridan qayta ko‘rib chiqishlari zarur, deb hisoblaymiz.

Biz barcha yurtdoshlarimiz – tadbirkorlar, ziyolilar, kasaba uyushmalari faollari va nuroniylar, olimlar, o‘qituvchi va ustozlarni, ijodkor ziyolilarni ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga har tomonlama – nafaqat moddiy, balki ma’naviy, ruhiy yelkadosh bo‘lishga chaqiramiz.

Biz bu yo‘lda tadbirkorlar, ishbilarmonlarning har bir qo‘shgan hissasiga davlatning alohida e’tibori, imtiyozlari tizimi shakllantirilganini, kambag‘allikda yashayotganlarga berilgan har qaysi ko‘makning hisobda ekanini alohida ta’kidlagan holda, aslida har bir inson o‘z hamyurtining birodari va do‘sti, opasi va akasidek yaqin bo‘lishini anglashning ayni fursati kelganini ta’kidlashni istar edik.

**Kambag‘allik kulfatdir, u bir odamning emas, jamiyatning, xalqning kamchiligi, xatosi, e’tiborsizligi, loqaydligi hosilasidir va unga qarshi kurash barchamizning burchimiz,** degan qarashni har bir inson qalbiga singdirishni maqsad qilib olishimiz zarur.

Chunki kambag‘allikda yashash insonni hayotdan sovitadi, uning ertangi kunga umidini so‘ndiradi, uni befarq va maqsadsiz odamga aylantiradi.

Binobarin, bu muammoni bartaraf etish jamiyatning barcha a’zosiga daxldor masaladir.

Aziz yurtdoshlar!

Mamlakatimizda kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar ko‘lami va natijalar qanchalik zalvarli bo‘lmasin, Davlatimiz rahbari bu borada butun xalqimizga chaqiriq bilan chiqmoqda.

Prezidentimiz kambag‘allikni qisqartirishni umummilliy harakatga aylantirish tashabbusini ilgari surmoqda.

Bu masala bo‘yicha maxsus “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturi ishlab chiqilmoqda.

Xalqimiz saylagan har bir deputat, hukumat a’zosi, joylardagi hokimdan tortib, to “mahalla yettiligi”ga qadar bo‘lgan mas’ullar bilib olsinki, Davlatimiz rahbari tomonidan ularning faoliyati faqat va faqat aholiga yaratayotgan sharoitlar, joylardagi oddiy xalqning farovonligi bilan baholanadi.

Qadrli vatandoshlar!

Biz shu aziz yurtni chin qalbdan sevadigan har bir insonni shu muqaddas g‘oya, oliyjanob tashabbus atrofida birlashishga chaqiramiz.

Jamiyatimizda yillar davomida chuqur ildiz olgan kambag‘allik “kasalligi”ni davolashda, kelgusi bir yilda kambag‘allik darajasini sezilarli ravishda tushirishda barchamiz bir yoqadan bosh chiqarib, Davlatimiz rahbari atrofida birlashaylik!

Eng avvalo, kambag‘allikka tushib qolgan har bir insonga munosabatimizni o‘zgartiraylik! Bunday insonlarni begona emas, o‘z birodarimiz, farzandimiz qatori ardoqlaylik, ularga shu muqaddas Vatanga bo‘lgan muhabbat hissini targ‘ib qilaylik, imkonimiz boricha ularni munosib yashash uchun rag‘batlantiraylik, ularga har jihatdan yordamlashaylik!

Jamiyatimizda kambag‘allikni keskin kamaytirish bo‘yicha muhtaram Prezidentimizning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlagan holda, biz – kasaba uyushmalari faollari va respublika nuroniylari quyidagi vazifalarni amalga oshirishni belgilab olmoqdamiz:

**birinchidan**, “mahalla yettiligi” bilan hamkorlikda xonadonbay yurib, oila a’zolarining birontasi daromadli ish bilan band bo‘lmagan yoki oila boquvchisi yagona bo‘lgani sababli og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan oilalarning ro‘yxatini tuzish;

**ikkinchidan**, har bir tuman va shaharda 10 tadan ehtiyojmand oilani kambag‘allikdan chiqarish bo‘yicha kompleks choralarni amalga oshirish, xususan, ularning sog‘lig‘ini tiklash va o‘qitishdan tortib, doimiy daromadga ega bo‘lishiga qadar ko‘maklashib borish;

**uchinchidan**, kam ta’minlangan aholini kooperatsiyalarga jalb qilish, tadbirkorlikka va kasbga o‘rgatish, ish o‘rni yaratuvchi tadbirkorlar bilan hamkorlik o‘rnatish orqali har yili 5 mingta yangi ish o‘rni yaratish;

**to‘rtinchidan**, mehnat qilib daromadli bo‘lish istagini bildirgan yoshlarni kasbga o‘rgatish, kamida 5 million so‘m daromad qiladigan ish bilan band qilish choralarini ko‘rish;

**beshinchidan**, ishlashga ishtiyoqi bo‘lgan, imkoniyati cheklangan aholi vakillarining 5 ming nafariga nogironlik aravachasi va boshqa reabilitatsiya vositalari berib, kasalliklarini davolashga ko‘maklashish, ularni daromadli kasblarga o‘rgatish va kambag‘allikdan chiqarish;

**oltinchidan**, bir yilda 5 ming nafar nogironligi bo‘lgan bolani reabilitatsiya markazlarida davolashda ko‘maklashish;

**yettinchidan**, ehtiyojmand oilalarning iqtidorli yigit va qizlari mamlakatimiz va xorijiy universitetlarga grantni qo‘lga kiritishi uchun yordam berish, O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Mehnat va ijtimoiy munosabatlar akademiyasida har yili 100 nafar ehtiyojmand fuqaroning farzandini o‘qitib, ularni ish bilan ta’minlashga ko‘maklashish;

**sakkizinchidan**, kam ta’minlangan oilalarning 4 ming nafar farzandini bolalar oromgohlarida bepul sog‘lomlashtirish;

**to‘qqizinchidan**, kam ta’minlangan oilalarning 100 nafar farzandini suv sporti majmualarida bepul sog‘lomlashtirish;

**o‘ninchidan**, 1 ming nafar ehtiyojmand fuqaro va 1,5 ming nafar yolg‘iz nuroniyni tizimdagi sanatoriylarda bepul sog‘lomlashtirish;

**o‘n birinchidan**, 10,5 ming nafar nuroniyning salomatligini tiklash uchun sport komplekslariga abonement xarajatlarini qoplab berish;

**o‘n ikkinchidan**, har yili Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari, mehnat fronti faxriylari, o‘zgalar parvarishiga muhtoj bo‘lgan yolg‘iz keksalardan 37 ming nafarining holidan xabar olish, uy-joy sharoitlarini yaxshilash;

**o‘n uchinchidan**, nuroniy va ehtiyojmand 200 ming nafar fuqaroni yurtimizning so‘lim go‘shalarida dam olishlarini tashkillashtirib, shu yerda ularga tadbirkorlik ko‘nikmalarini o‘rgatish bo‘yicha motivatsion seminarlar tashkillashtirish.

Hurmatli vatandoshlar!

Bu ezgu yo‘lda qaysi kasbu kor egasi, qaysi millat va elat farzandi bo‘lmasin, hech kim chetda qolmasligi kerak!

Shu maqsadda barchamiz birlashib, yurtimizni obod va farovon mamlakatga aylantiraylik!

Zero, “Biz bir bo‘lsak – yagona xalqmiz, birlashsak – Vatanmiz!”

# MUSTAHKAM HUQUQIY ASOS OMILI

Muhokamadan so‘ng qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi o‘qishda qabul qilindi.

**Odam savdosi jinoyatini sodir etganlarga kuchaytirilgan jazo choralari qo‘llaniladi**

Deputatlar “Odam savdosi jinoyati uchun jazo choralari kuchaytirilayotganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 135-moddasiga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida”gi qonun loyihasini muhokama qildilar.

Majlisda bugungi kunda odam savdosi bilan bog‘liq jinoyatlar hamon sodir etilayotgani aytilib, bu kabi insonlarning huquq va erkinliklarini buzish bilan bog‘liq huquqbuzarliklar uchun mutanosib sanksiyalar belgilanmagani uqtirildi.

Shu bois mazkur qonun loyihasi bilan Jinoyat kodeksiga odam savdosi jinoyatini sodir etganlarga nisbatan jazo choralarini kuchaytirish bilan bog‘liq o‘zgartirish kiritish nazarda tutilmoqda. Jumladan, homilador ayolga nisbatan sodir qilingan odam savdosi, shuningdek, muqaddam odam o‘g‘rilash jinoyatiga qo‘l urgan shaxslar tomonidan odam savdosi jinoyatining sodir etilishini og‘irlashtiruvchi holat sifatida belgilash taklif qilinyapti.

Qonun loyihasining qo‘llab-quvvatlanishi odam savdosi jinoyati sodir etilishining oldini olishga, bolalar va xotin-qizlar huquqlari bilan bog‘liq xalqaro indekslarda mamlakatimizning o‘rnini yaxshilashga xizmat qiladi.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan qabul qilindi va Senatga yuborildi.

## Sug‘urta qildiruvchilarga imtiyozlar

Majlisda sug‘urta qildiruvchilarni majburiy sug‘urta turlari bo‘yicha kelib chiqqan nizolarda davlat bojidan ozod etishni nazarda tutuvchi qonun loyihasi birinchi o‘qishda konseptual jihatdan ko‘rib chiqildi.

Ushbu qonun loyihasi bilan sug‘urta qildiruvchilarni majburiy sug‘urta shartnomalaridan kelib chiqadigan da’volar bo‘yicha davlat bojini to‘lashdan ozod etish orqali ularga yanada qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida, “Davlat boji to‘g‘risida”gi Qonunga qo‘shimchalar kiritish taklifi ilgari surilmoqda. Unga ko‘ra qonunning 8 va 9-moddalari sug‘urta qildiruvchilar (sug‘urtalangan shaxs, naf oluvchi, jabrlanuvchi) majburiy sug‘urta turlari bo‘yicha kelib chiqqan nizolarda davlat bojidan ozod etilishini nazarda tutuvchi normalar bilan to‘ldirilyapti.

Majlisda deputatlar tomonidan mazkur qonun loyihasi iste’molchilarning majburiy sug‘urta turlari bo‘yicha sug‘urta hodisalarida kelib chiqqan nizolar yuzasidan sudga da’vo arizalari kiritganda davlat bojidan ozod qilinishiga sabab bo‘lishi qayd etildi.

Qonun loyihasi deputatlar tomonidan ikkinchi o‘qishda qabul qilindi.

**Kredit olishda mavjud huquqiy to‘siqlar bartaraf etiladi**

Kichik va o‘rta biznesni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi ham majlisda birinchi o‘qishda muhokama qilindi.

Ta’kidlanganidek, ushbu qonun loyihasi tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmini kengaytirish, nobank kredit tashkilotlarining tadbirkor tomonidan kredit olishida mavjud huquqiy to‘siqlarni bartaraf etishga qaratilgan.

Qonun loyihasi kredit oluvchiga kafolat (kafillik) berish faoliyatini professional asosda amalga oshiruvchi kafolatlar berish tashkilotini tashkil etishga oid huquqiy normalarni o‘z ichiga olgan.

Shuningdek, loyiha bilan nobank kredit tashkilotlarini aksiyadorlik jamiyati yoki mas’uliyati cheklangan jamiyat shaklida ochish, mikromoliya tashkilotlari tomonidan mijozlarga xorijiy valyutada moliyaviy xizmatlar ko‘rsatish hamda mikromoliya tashkilotlariga tegishli litsenziya olgan holda to‘lov tashkiloti faoliyatini amalga oshirish imkoniyatlari yaratilmoqda.

Bundan tashqari, loyihada jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan nobank kredit tashkilotining ustav kapitalidagi olinayotgan ulush miqdori 10 foizdan 20 foizgacha bo‘lganda Markaziy bankning xabardor qilish tartibi qo‘llanilishi ko‘zda tutilgan.

Munozaralardan so‘ng qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi o‘qishda qabul qilindi.

## Xizmat intizomi va moddiy javobgarlik

Deputatlar “Harbiy xizmatchilarning moddiy javobgarligi to‘g‘risida”gi qonun loyihasini birinchi o‘qishda ko‘rib chiqdilar.

Ta’kidlanganidek, keyingi yillarda Qurolli Kuchlarni yanada rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan islohotlar, birinchi navbatda, xalqimizning xavfsizligi, tinchligi va osoyishtaligini ta’minlashga qaratilgan. Harbiy qurilishning barcha yo‘nalishida amalga oshirilgan kompleks choralar natijasida milliy armiyamizning qiyofasi ham, qo‘shinlarning tayyorgarlik darajasi ham o‘zgarmoqda. Harbiy qism va poligonlardagi infratuzilma, askarlar, serjant va ofitserlarning sharoitlari yaxshilanyapti. Bu ishlar izchil davom ettirilib, jangovar bo‘linmalar imkoniyatlari kengaytirilmoqda.

Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida muttasil ravishda xizmat intizomiga rioya qilinishini hamda qonuniylikni ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Xizmat intizomi har bir harbiy xizmatchining o‘z burchini yuksak darajada anglashiga hamda qo‘yilgan vazifalar uchun shaxsiy javobgarligini chuqur tushunishiga asoslanadi.

Qurol-yarog‘, harbiy texnika va boshqa moddiy-texnika vositalaridan maqsadli va samarali foydalanish, ularni oqilona ekspluatatsiya qilish hamda zararli omillardan muhofaza etish har bir harbiy xizmatchining kasbiy burchidir.

Shundan kelib chiqib, “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi Qonunda belgilab berilgan harbiy xizmatchilarning moddiy javobgarligiga oid normalarda bugungi kunga kelib qonun darajasida aniqlashtirilishi lozim bo‘lgan muhim masalalarga oydinlik kiritish talab etiladi.

Ushbu qonun loyihasi bilan amaldagi “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi Qonun bilan belgilangan harbiy xizmatchilarning moddiy javobgarligiga oid normalarga oydinlik kiritilib, mazkur masala yuzasidan yaxlit qonun hujjatini qabul qilish nazarda tutilmoqda.

Shuningdek, loyihada harbiy xizmatchilarni moddiy javobgarlikka tortish asoslari, harbiy xizmatchilarning cheklangan yoki to‘liq moddiy javobgarligi masalalari, yetkazilgan zarar miqdorini aniqlash hamda uning o‘rnini qoplash tartib-taomillari kabi muhim normalar aniqlashtirilmoqda.

Majlisda qonun loyihasi birinchi o‘qishda qabul qilindi.

## Qonunchilikdagi eskirgan normalar – muhokama markazida

Bir guruh deputatlar tomonidan qonunchilik tashabbusi huquqi asosida ishlab chiqilgan – “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun loyihasi birinchi o‘qishda muhokama etildi.

So‘nggi yillarda qonunchilikni tizimlashtirish, to‘g‘ridan-to‘g‘ri amalda qo‘llanadigan qonunlar ulushini oshirish, qabul qilinayotgan qonunlarning ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va sud-huquq islohotlari jarayoniga ta’sirini kuchaytirish hamda qonunchilikdagi korrupsiyaviy xavflarni aniqlash va bartaraf etish bo‘yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda.

Ayrim qonun hujjatlarida ularni amalga oshirishning muayyan mexanizmlari belgilanmagani, ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishi natijasida ba’zi normalarning eskirgani ularni qayta ko‘rib chiqish va takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Ko‘rib chiqilgan qonun loyihasi bilan “Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi, “Avtomobil transporti to‘g‘risida”gi, “Baholash faoliyati to‘g‘risida”gi, “Avtomobil yo‘llari to‘g‘risida”gi, “Maxsus iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi va “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi qonunlarda aniqlangan ayrim o‘z ahamiyatini yo‘qotgan, eskirgan normalar qayta ko‘rib chiqilmoqda. Shuningdek, ba’zi normalarni amalga oshirish mexanizmlari belgilanyapti.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan qabul qilindi.

## Sohadagi munosabatlar tartibga solinadi

Majlisda “Qishloq xo‘jaligi kooperativi to‘g‘risida”gi qonun loyihasi ikkinchi o‘qishda moddama-modda muhokama qilindi.

U qishloq xo‘jaligi kooperativining tashkil etilishi, faoliyati, qayta yo‘lga qo‘yilishi va tugatilishi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan bo‘lib, unda belgilanayotgan normalar kichik ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash, ular faoliyatini muvofiqlashtirish, davlat tomonidan shart-sharoitlar yaratish, moliyalashtirish bo‘yicha rag‘batlantiruvchi chora-tadbirlarni qo‘llash masalalarini ham ko‘zda tutadi.

Loyihada qishloq xo‘jaligi kooperativi jismoniy va yuridik shaxslarning ixtiyoriy ravishda birlashib, egalik qiladigan va demokratik yo‘l bilan boshqariladigan, a’zolarining moddiy va boshqa ehtiyojlarini qondirish uchun pay usuliga asoslanib faoliyat yurituvchi mustaqil tashkilot ekanligi belgilanmoqda.

Majlisda qonun loyihasi qizg‘in muhokamaga sabab bo‘ldi. Xususan, 8-bobning Kooperativlar uyushmasiga oid 45-moddasida kooperativlar o‘z faoliyatini muvofiqlashtirish, umumiy manfaatlarini ifodalash va himoya qilish maqsadida notijorat tashkilotlar shaklida tashkil etiladigan kooperativlar uyushmalariga birlashishi mumkinligi, kooperativlar uyushmasiga asos solish, faoliyati, qayta yo‘lga qo‘yilishi va tugatilishi tartibi “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonun bilan tartibga solinishi nazarda tutilgan. Deputatlar bu haqda to‘xtalib, qonunchiligimizda “notijorat tashkilotlar” degan tushuncha yo‘qligini va shu o‘rinda “nodavlat”, degan so‘zni qo‘llash maqsadga muvofiqligini ta’kidladilar. Shuningdek, ushbu moddaning beshinchi qismi – Kooperativlar uyushmasiga kirish va a’zolik badallari, kooperativlar uyushmalari a’zolaridan tushadigan muntazam tushumlar, ixtiyoriy mulkiy badallar va xayriyalar, tadbirkorlik faoliyatidan olingan, faqat ustav maqsadlarini bajarish uchun foydalaniladigan daromad (foyda), kooperativlar uyushmalari a’zolari tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlarga oid masalalar ham qizg‘in muhokama markazida bo‘ldi. Deputatlar tomonidan ushbu qismni olib tashlash taklifi ilgari surildi.

Qonun tashabbuskorlari bu bo‘yicha o‘z fikr va mulohazalarini bildirishdi. Uzoq tortishuv va asosli tushuntirishlardan keyin 8-bob chiqarilib, uning 45-moddasi tegishli tuzatishlar bilan takomillashtirildi.

Savol-javoblardan so‘ng qonun loyihasi deputatlar tomonidan qabul qilindi.

## Temir yo‘l transporti: qanday o‘zgarishlar kutilmoqda?

Temir yo‘l transporti sohasidagi munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan “Temir yo‘l transporti to‘g‘risida”gi qonun loyihasi ham qizg‘in muhokamaga sabab bo‘ldi.

Unda sog‘lom raqobat muhitini yaratish, sohaga xususiy sektorni keng jalb qilish, temir yo‘l transportini monopoliyadan chiqarish maqsadida tashuvchi va vagonlar (konteynerlar) operatorining huquq va majburiyatlari belgilab berilmoqda.

Shuningdek, loyihada temir yo‘l transportida yo‘lovchi tashish sohasini yanada rivojlantirish, sohada davlat-xususiy sheriklikning huquqiy asoslarini yaratish, investitsiyalarni jalb etishni kengaytirish hamda yo‘lovchilarga yuqori darajada xizmat ko‘rsatilishini ta’minlash imkoniyatlarini oshirishda nodavlat sektor ishtirokini rag‘batlantirish maqsadida temir yo‘lda davlat-xususiy sheriklik asosida loyihalarni amalga oshirish imkoniyatlari berilmoqda.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolarni qo‘llab-quvvatlash, ularning yo‘lovchi poyezdlarda yurish imkoniyatini yaratish maqsadida temir yo‘l transportidan yo‘lovchilarning imtiyozli foydalanishi, huquq va majburiyatlari ham mustahkamlanmoqda.

Shu bilan birga, umumiy foydalanishdagi temir yo‘l transporti infratuzilmasi obyektlari davlat tasarrufida qoldirilmoqda. Vokzallar va vagonlar esa davlat-xususiy sheriklik shartnomalari asosida qurish, modernizatsiya qilish va boshqarish uchun xususiy sherikka berilishi belgilanyapti.

Majlisda qonun loyihasi yuzasidan bir qator savollar o‘rtaga tashlandi. Ayrim masalalar yuzasidan qizg‘in fikr-mulohazalar bildirildi.

Uzoq tortishuvdan so‘ng qonun loyihasining muhokamasi quyi palataning keyingi yalpi majlisida davom ettiriladigan bo‘ldi.

**“Xalq so‘zi”.**

**19-20-sentabr kunlari Toshkent va Xorazmda O‘zbekiston – Eron ishbilarmonlarining biznes forumi bo‘lib o‘tadi.**

# PARTIYALARNING SIYOSIY SPEKTRI NEGA MUHIM?

*Ma'lumki, shu yil 27-oktabr kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasi, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari deputatligiga saylovlar bo'lib o'tadi. Bu galgi saylovlar Qonunchilik palatasiga aralash saylov tizimi asosida o'tkazilishi bilan avvalgilaridan farq qiladi. Ya'ni 75 nafari majoritar (to'g'ridan-to'g'ri nomzodlarga ovoz berish) va 75 tasi esa proporsional (partiya ro'yxatlariga ovoz berish) tizim asosida saylanadi. Demak, bu saylovlarda partiyalardan ko'rsatilgan nomzodlarga va siyosiy partiyalarning o'zlariga ovoz beriladi.*

SAYLOV 2024 27-OKTABR
MENING TANLOVIM — OBOD VATANIM!

O'zbekistonda ko'ppartiyaviylik tizimi mavjud bo'lib, saylovlarda mamlakatimizdagi mavjud beshta siyosiy partiya ishtirok etadi. Yaqinda siyosiy partiyalarning oliy organlari (kongress, qurultoy, forum, syezd) majlislari bo'lib o'tdi. Ularda partiyalarning o'tgan besh yillik faoliyati sarhisob qilindi, bo'lajak saylovlarda faol qatnashish uchun shakllantirilgan saylovoldi dasturlari ma'qullandi hamda deputatlikka nomzodlar ro'yxati tasdiqlandi.

Partiyalar tomonidan keyingi besh yillik faoliyati uchun qabul qilingan saylovoldi dasturlari nihoyatda ahamiyatlidir. Chunki aralash saylov tizimi asosida partiyalarga ovoz berishda saylovchi, shubhasiz, partiyalarning saylovoldi dasturlaridagi g'oyalariga e'tibor qaratadi. Zero, partiya g'oyalari va dasturlari partiyalarning maqsadlari va vazifalarini aks ettiradi. Shunday ekan, qaysi partiya qanday g'oyalarni ilgari surayotgani va siyosiy spektrda qanday o'rin egallashi to'g'risida saylovchilarning aniq tasavvurga ega bo'lishi muhim rol o'ynaydi.

Siyosiy spektr – partiyalarning mafkuraviy qarashlari asosida siyosiy maydonda egallagan mavqeini anglatadi. Siyosiy spektrda partiyalarning o'rnini aniqlashda "o'ng", "so'l" va "markaz" partiya tushunchalari ko'p qo'llaniladi. Bu tushunchalar dastlab Fransiya parlamentida manfaatdor guruhlarning joylashuv tartibini ifodalagan. Bu tartibga ko'ra parlament zalida jamiyatda muqobil o'zgarishlar tarafdorlari so'ldan, mavjud holatni saqlab qolish tarafdorlari o'ng tarafdan joy olgan. O'sha kezlari "o'nglar" monarxiya manfaatlari va cherkovni qo'llab-quvvatlagan bo'lsa, "so'llar" respublika, dunyoviylik va fuqarolar tengligi tarafdori bo'lgan. Bu ikki qarama-qarshi taraf o'rtasida mo'tadil pozitsiyani egallagan partiyalar esa markazdan joy olgan. Bunday joylashuv tartibi parlament yig'ilishlarida bardavom bo'ladi va ko'plab Yevropa davlatlari parlamentlari ham bunday joylashish tartibini o'zlarida tatbiq qila boshlaydi. Bu, shuningdek, g'oyaviy qarashlarini shakllantirib rivojlantiradi.

Shunday qilib, *so'l partiyalar* dastlab tub o'zgarishlar tarafdori sifatida maydonga chiqqan bo'lsa, keyinchalik dunyoviylik, tenglik, adolat, mehnatkashlar manfaatini himoya qilish, ijtimoiy himoyani kuchaytirish, tabiatni avaylab asrash g'oyalarini ilgari surgan sotsial-demokratik g'oyalarni targ'ib qila boshladi.

*O'ng partiyalar* konservativ bo'lib, qadriyat va an'analarni himoyalash, milliy manfaatlar va milliy davlatchilikni qo'llab-quvvatlash, erkinlik, bozor iqtisodiyoti va tadbirkorlikni rivojlantirish, davlatning iqtisodiyotga aralashuvini kamaytirish, boj va soliqlarni qisqartirish kabi g'oya va maqsadlarni ilgari suradi. O'zlarida ham so'l, ham o'ng g'oyalarni muayyan darajada uyg'unlashtirgan va mo'tadil qarashga ega partiyalar *markaz partiyalar* hisoblanadi.

O'ng, so'l va markaz partiyalar Yevropaning deyarli barcha davlatida mavjud bo'lib, ularning shakllanish tarixi yuz yillarga borib taqaladi. Ayni paytda ta'kidlash joizki, partiyalarning o'ng, so'l va markaz partiyaga g'oyaviy bo'linishi nisbiy tabiatga ega. Chunki ayrim masalalarda partiyalar maqsadlarida bir-birini takrorlash va qo'llab-quvvatlash holatlari ham uchrab turadi.

Shu o'rinda haqli savol tug'iladi: partiyalarning siyosiy spektrdagi o'rnini bilish saylovchilarga nima beradi?

**Birinchidan**, partiyalarning siyosiy spektrda o'ng, so'l va markaz pozitsiyasini egallashi saylovchilarga ularning maqsadlari, g'oya va qarashlarini oson tushunish imkonini beradi va fuqarolarning siyosiy dunyoqarashlarini yuksaltiradi.

**Ikkinchidan**, dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, siyosiy spektrda mustahkam o'rin egallagan partiyalar barqaror faoliyat ko'rsatadi va o'zining muqim elektoratiga ega bo'ladi.

**Uchinchidan**, partiyaning siyosiy spektrdagi o'rni aniqligi partiyalar bilan saylovchilar o'rtasidagi muloqotning mustahkamlanishiga yo'l ochadi, bunda mamlakat rivojiga xizmat qiladigan g'oya-tashabbuslar o'rtaga tashlanadi va ularni amalga oshirish uchun sa'y-harakatlar kuchayadi.

Partiyalarning siyosiy spektrdagi o'rni va mafkuraviy mo'ljallari qanday aniqlanadi? Odatda, bu ma'lumot partiyalarning nomlanishlarida va dasturlarida aks ettiriladi. Masalan, biror partiya o'z nomida sotsial-demokratiya so'zini ishlatsa, demak, ushbu partiya ijtimoiy himoya, ijtimoiy tenglik, mehnatkashlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, aholi daromadiga mutanosib ravishda soliqlar joriy qilinishi, ta'lim va tibbiyot bepul bo'lishi kabi masalalarni ilgari suradi va so'l partiya hisoblanadi. O'zbekistonda ushbu g'oyani "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi va O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi targ'ib qilib kelmoqda. Shuningdek, so'l qanotda ekologik partiyalar ham o'rin olgan bo'lib, ular oxirgi yillarda dunyo bo'yicha o'zini yaqqol namoyon etib borayotgan iqlim o'zgarishi va atrof-muhit himoyasi, "yashil" iqtisodiyot tarafdori bo'lgan yashillar partiyasi hisoblanadi. O'zbekiston Ekologik partiyasi ana shunday siyosiy kuchlardan biri hisoblanadi.

O'z nomlanishida liberal-demokratiya atamasi qo'llanilgan partiyalar esa erkinlik, mulk daxlsizligini ta'minlash, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, jarima va soliqlarni kamaytirish, sog'lom raqobatni kuchaytirish va har xil byurokratik to'siqlarni bartaraf etishga qaratilgan ixcham davlat g'oyalarini qo'llab-quvvatlaydi. Bu g'oyalar bilan bir qatorda ijtimoiy himoya masalasini faol ilgari surayotgan O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi markaz va o'ng markaz partiyasi ekanligini ta'kidlash joiz. Milliy va tarixiy qadriyatlarni himoyalash g'oyasini ilgari suruvchi hamda tadrijiy rivojlanishni yoqlovchi partiyalar konservativ partiyalar hisoblanadi va o'ng partiya maqomiga ega bo'ladi. O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi ana shunday siyosiy yo'nalishga mansub.

O'zbekistondagi beshta partiya ham o'tgan davrda siyosiy spektrdagi o'rnini aniqlashtirib, mustahkamlab oldi. Siyosiy partiyalar nafaqat saylovoldi kurashda, balki parlamentdagi faoliyati davomida ham o'z g'oyaviy yo'nalishlariga tayanmoqda. Masalan, O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi Tadbirkorlik kodeksi, "Innovatsion faoliyat to'g'risida", "Dehqon xo'jaligi to'g'risida" va "Tomorqa xo'jaliklari to'g'risida"gi qonunlarni ishlab chiqish, biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish borasidagi tashabbusini ilgari surgan bo'lsa, "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunni ishlab chiqishda milliy qadriyatlarga asoslangan "Ustoz – shogird" an'analarini joriy qilish tashabbuslarini ilgari surdi. "Adolat" SDP va Xalq demokratik partiyalarining ijtimoiy himoya masalalari, o'qituvchi va tibbiyot xodimlarini qo'llab-quvvatlash borasidagi tashabbuslari, O'zbekiston Ekologik partiyasining atrof-muhit muhofazasi, masalan, "Orolga nigoh" loyihasi doirasida "Yashil belbog'" xayriyasini o'tkazishi hamda "yashil" energetikani rivojlantirish borasidagi sa'y-harakatlari bunga misol bo'la oladi. Bunday harakat va tashabbuslari bilan partiyalar nafaqat o'z siyosiy spektriga sodiqligini namoyon qilmoqda, balki saylovchilarga bergan va'dalarini bajarib, ularning ishonchini oqlamoqda.

Ta'kidlash lozimki, siyosiy partiyalar saylovoldi dasturlaridagi g'oyalarini OAV orqali jamoatchilikka yetkazishda faollik ko'rsatmoqda. Ularga e'tibor qaratsak, Xalq demokratik partiyasi va "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi ijtimoiy muammolarga ko'proq ahamiyat berayotganligi bilan sotsial-demokratik g'oyalarni targ'ib qilmoqda. O'zbekiston Ekologik partiyasi atrof-muhit muammolari va daraxtlarni asrash masalalari bilan yashillar g'oyalarini ilgari surmoqda. Bu mazkur partiyalar so'l qanot partiyasi ekanini ko'rsatadi. O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi o'ng qanot partiyasi o'laroq qadriyatlarga tayangan taraqqiyot shiori bilan konservatizm g'oyalarini targ'ib qilmoqda. O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi esa erkinlik tamoyillariga tayangan holda ishlab chiqarish va tadbirkorlikni rivojlantirish orqali mamlakat iqtisodiyoti va xalq farovonligini yanada yuksaltirishga urg'u beradi. Shu bilan birga, ushbu partiyaning so'l qanot partiyalariga xos bo'lgan ijtimoiy himoya masalalariga, shuningdek, o'ng qanot vakiliga mos bo'lgan qadriyatlar va milliylik masalalari bo'yicha saylovoldi dasturida tegishli g'oyalar o'z aksini topgani uni markaz va o'ng markaz partiya sifatida gavdalantiradi.

Shunday qilib, yurtimizda siyosiy partiyalar g'oyaviy va mafkuraviy qarashlari bilan siyosiy maydonda o'z o'rniga va roliga ega bo'lib bormoqda. Bu holat ilk marotaba aralash saylov tizimi asosida o'tadigan bu galgi saylovlarda o'z aksini topadi, albatta. Bu ijobiy tendensiya boshqaruvni yanada demokratlashtirish va fuqarolik jamiyatini mustahkamlashda katta ahamiyat kasb etadi va jamiyatdagi fikrlar xilmaxilligi – plyuralizmni kuchaytiradi. Bundan tashqari, partiyalarning siyosiy spektrdagi pozitsiyasi saylovchilarni o'z g'oyalari atrofida birlashtirish imkonini beradi. Ayni paytda saylovchilar ham o'z maslaklariga yaqin partiyalarga ovoz berishda ishonchli pozitsiyaga ega bo'ladi.

**Ravshan G'OZIYEV,**
**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti dotsenti v.b. (PhD).**

# QOP-QOP VA'DALAR BERILMOQDA, BIROQ...

*Bundan salkam uch yil muqaddam, aniqrog'i, 2021-yilning 27-oktabrida "Xalq so'zi" gazetasi saytida "Ginnes rekordlar kitobiga kirishga nomzod kutubxona yoxud qachongacha qaror faqat qog'ozda qoladi?" sarlavhali tanqidiy maqola e'lon qilingandi. Unda Buxoro viloyati ko'zi ojizlar maxsus kutubxonasi Shofirkon filiali binosining abgor holati qalamga olingan edi.*






## Achchiq, ammo ochiq gaplar

Xo'sh, shundan so'ng ahvol o'zgardimi? Kutubxonachi-yu o'nlab ko'zi ojiz kitobxonlarning keng va yorug', zamonaviy shart-sharoitlar yaratilgan kutubxonaga ega bo'lish orzu-umidlari ushaldimi?

– Afsuski, yo'q, – deydi viloyat ko'zi ojizlar maxsus kutubxonasi rahbari A'zam O'roqov. – Biz tomonimizdan ajratilgan javonlarni va joriy ta'mirlash ishlarini aytmaganda, bu filialdagi ahvol eng og'riqli nuqtalarimizdan biri bo'lib turibdi.

A'zam akaning kuyinganicha bor. Filial joylashgan bino bundan 77 yil avval xom g'isht, ya'ni loydan qurilgan. U uzoq yillar o'rmon xo'jaligi uchun boshpana vazifasini o'tagan. Bugungi kunga kelib, sho'rlik bino adoyi tamom bo'lgan. Hatto unga tirgak vazifasini o'tayotgan devorlarning ham holi tang. Poydevorga darz ketgan. O'quv zali vazifasini o'tayotgan xona tor. Besh kishi kirsa, oltinchisi yo'lakda turib qoladi. Adabiyotlar saqlanadigan xonani ko'rib esa "Biz qaysi asrda yashayapmiz?" deya yoqa ushlashingiz tayin. Negaki, xona poli sinib, o'ra hosil bo'lgan. Aytmoqchi, biz viloyat va tuman mas'ullariga tomining yorilgan bir chekkasidan quyosh nuri tushadigan, yog'in-sochinli kunlarda chakki o'tadigan bu antiqa binodagi manzaradan bahramand bo'lishni tavsiya etardik.

– Fondimizda 8884 ta adabiyot mavjud, – deydi filial mudirasi vazifasini bajaruvchi Komila Sunnatova. – Ularni asrab-avaylash biz uchun eng katta muammo sanaladi. Vaholanki, bo'rtma nuqtalisini olasizmi, yassi adabiyotlarnimi, barchasini saqlashning o'z tartib-qoidalari bor. Men bu o'rinda xonadagi namlik, yorug'lik darajasi, haroratni nazarda tutyapman. Havo tozalagich va boshqa jihozlar haqida-ku gapirmasa ham bo'ladi. Ko'rib turganingizdek, binoning o'zi yaroqsiz ahvolda. Ishqilib tom qismi o'pirilib tushmasa bo'lgani...

– Yog'in-sochinli kunlarda chakki o'tadi, – deya suhbatga qo'shiladi kutubxonachi Oydin Aslonova. – Shunday paytlarda tog'ora qo'yib, polietilen qog'oz to'shab adabiyotlarni asrash payida bo'lamiz.

Biz bu kutubxonaga uzoq yillardan buyon qatnab kitobxonlik qilayotganlarning bir guruhini tuman ko'zi ojizlar o'quv ishlab chiqarish korxonasida uchratdik.

– Mehnat ortidan ham ro'zg'orga, ham jamiyatga nafimiz tegyapti, – deydi o'zini Shoira Yahyoyeva deya tanishtirgan ishchilardan biri. – Bo'sh paytimizda, albatta, kutubxonaga boramiz. U biz uchun qadrdon maskan bo'lib qolgan.

– Kutubxona bilan bir binoda ko'zi ojizlar maxsus madaniyat markazi faoliyat ko'rsatadi, – deydi yana bir suhbatdoshimiz Hilola Istamova. – "Eng yaxshi kitobxon", "Iqbol" ko'rik-tanlovlarida qatnashamiz. Shaxmat, shashka to'garagi bor. Hozir monomarkaz vositachiligida Brayl yozuvini o'rganyapmiz. Lekin kutubxonada ham, klubda ham mashg'ulotlarni risoladagidek o'tkazish uchun talabga javob beradigan sharoit yo'q.

Boz ustiga kutubxona binosi qishda isitilmaydi. Kutubxonachilar uylaridan o'tin olib kelib, qo'lbola pechda jon saqlashadi.

– Yaqinda ko'zi ojizlar o'quv ishlab chiqarish korxonasi yangi binosining ochilish marosimi bo'lib o'tdi, – deydi keksa kitobxonlardan biri Ixtiyor Usmonov. – Fursatdan foydalanib, tadbirga tashrif buyurgan viloyat hokimi e'tiborini kutubxona va klub masalasiga qaratdik. Endi ahvol yaxshi tomonga o'zgarishidan umidvormiz. Negaki, yoshlarimizning dunyoqarashi, tafakkurini boyitishda kitobxonlik o'rni katta. Biz ham nevaralarimizning keng va yorug', shinam kutubxonada kitob mutolaa qilishlarini istaymiz, albatta.

Sirasini aytganda, bunga qadar ham ziyo maskani binosining abgorligi haqida mas'ullarga ko'plab murojaatlar qilingan. Ammo ular suvga tushgan toshdek izsiz ketdi. Bu orada tumanda rahbar o'zgardi. Qop-qop va'dalar berildi. Lekin ko'zi ojizlar tuman kutubxonasidagi ahvol o'zgarmadi.

Nima bo'lganida ham, bir achchiq haqiqat bor: ko'zi ojiz insonlar televizor ko'rish, spektakl tomosha qilish, ijtimoiy tarmoqlarni kuzatib borish imkoniyatidan mosuvo. Kitob – ularning yupanchi, tayanchi, eng yaqin do'sti. Shu bois ham Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2018-yilning 18-sentabrida "Nogironligi bo'lgan shaxslarga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi qaror imzolangan. Hamma gap shu qaror ijrosi bekamu ko'st bajarilishida qolgan.

Xo'sh, qaror ijrosi uchun mas'ullar Shofirkondagi bu noxush holatga nima deyisharkin?..

**Istam IBROHIMOV**
**("Xalq so'zi").**

YANGILIKLAR xabarlar
TAFSILOTLAR

## "Bir kuni Samarqandda"

*Sarguzasht komediya janridagi ushbu film "Miraman Film Entertainment" (O'zbekiston) hamda "CCG" (Qirg'iziston) kinostudiyalari hamkorligida tasvirga olingan.*




Unda Samarqandga Amir Temur davri yodgorliklarini olib kelgan uch nafar (o'zbek, qirg'iz, qozoq) tarixchi haqida hikoya qilinadi. Film qahramonlari noma'lum shaxslar tomonidan o'g'rilangan bebaho eksponatlarni qaytarish maqsadida jinoyatchilarning izidan tushishadi. Tomoshabin ham qahramonlar ortidan borib, qadimiy Samarqandning betakror me'moriy majmualari bo'ylab sayohat qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Bugun Milliy kino san'ati saroyida taniqli o'zbek aktyor va aktrisalari bilan birga, qirg'iz hamda qozoq kinoijodkorlari rol ijro etgan ushbu badiiy filmning yopiq namoyishi bo'lib o'tadi.

## Ganja shahrida Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va madaniyati markazi ochildi

*Ozarbayjon Milliy ilmlar akademiyasi qoshidagi Nizomiy nomidagi adabiyot instituti, Ganja shahar hokimligi hamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tomonidan "Turk dunyosining Ozarbayjon – O'zbekiston modeli" mavzuida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o'tkazildi.*

Unda qatnashgan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti rektori, akademik Shuhrat Sirojiddinov ushbu anjuman turkiy dunyoda alohida mavqega ega bo'lgan O'zbekiston – Ozarbayjon munosabatlarining yangi modelini ishlab chiqishga xizmat qilishini ta'kidladi.

Konferensiya doirasida Ozarbayjon Milliy ilmlar akademiyasi Ganja bo'limida Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va madaniyati markazi ochildi. Markazga universitet tomonidan 300 ga yaqin o'zbek tilidagi badiiy, ilmiy asarlar topshirildi. Ushbu ziyo maskaniga tashrif buyuruvchilar o'zbek xalqining tarixi, madaniyati, hazrat Navoiyning ijodiy merosi bilan tanishishi mumkin.

## Ham foydali, ham serdaromad



*O'zbekiston Qishloq xo'jaligi vazirligi hamda Rossiyaning "Sadoviy sentr romashka", "Yekorost" kompaniyalari hamkorligida poytaxtimizda tashkil etilgan "Qo'ziqorinlarni muvaffaqiyatli va sifatli o'stirish" mavzuidagi xalqaro seminarda ilg'or xorijiy tajribadagi yangiliklar muhokama qilindi.*

Tadbirda dunyo bo'yicha 70 dan ortiq davlatlarda qo'ziqorin yetishtirish va iste'mol qilish madaniyati ancha rivojlanib borayotgani, bunda Xitoy, Rossiya, Norvegiya, AQSH, Kanada hamda Avstraliya kabi davlatlarning qo'ziqorin yetishtirishdagi tajribalarini o'rganish muhimligi qayd etildi.

Anjumanda 100 metr kvadrat maydonga 4 tonna substratni osma usulda yetishtirishni yo'lga qo'ygan holda 2,5 tonna qo'ziqorin hosilini olish imkoniyati mavjudligi aytib o'tildi.

**"Xalq so'zi".**

**Xitoyning Guanchjou shahrida O'zbekistonning investitsiyaviy va eksport salohiyatiga bag'ishlangan taqdimot o'tkazildi.**

Xalq so'zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G-942. 12 918 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-8788

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir S. Mamirov.
Musahhih Sh. Mashrabboyev.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'zA yakuni — 21.05 Topshirildi — 00.05 1 2 3 4 5 6